

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/25.12.2024. I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

AXMEDOV ZAFARJON AZAMOVICH

**XUSUSIY SHIFOXONALARDA TIBBIY XIZMATLARNI
RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI
(SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of the abstracts of doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Axmedov Zafarjon A'zamovich

Хусусий шифоналарда тиббий хизматларни ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш йўллари (Самарқанд вилояти мисолида)

Ахмедов Зафаржон Азамович

Пути развития и повышения эффективности медицинских услуг в частных больницах (на примере Самаркандской области)

Axmedov Zafarjon A'zamovich

Ways to develop and improve the efficiency of medical services in private hospitals (using the example of the Samarkand region)

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/25.12.2024.I.18.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

AXMEDOV ZAFARJON AZAMOVICH

**XUSUSIY SHIFOXONALARDA TIBBIY XIZMATLARNI
RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI
(SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti

IQTISODIYOT FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Samarqand – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PHD/Iqt4920 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Samarqand davlat tibbiyot universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.sies.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Karabayev Sanjar Abdusamatovich**
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Urazov Komil Bahramovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Axrоров Farxod Baxriddinovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/25 J2.2024.I.18.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "9" 08 kuni soat 17:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; faks: (998 66) 231-12-53; e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (110 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Tel.: (99866) 233-19-84; faks: (998 66) 231-12-53; e-mail: sies_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "26" 07 kuni tarqatildi.
(2025-yil "26" 07 dagi № 19 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.E.Po'latov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash raisi, i.f.d., professor

Sh.O.Kuvandikov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash kotibi, i.f.d., dotsent

M.T.Alimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tibbiy xizmatlar sohasiga bo‘lgan talab songi besh yil davomida ortib, tobora barqaror mavqega ega bo‘lib bormoqda. Bunday rivojlanishni tibbiy xizmatlar borasida jahon malakatlaridan 2024-yilda Tayvan 78,7 reyting indeksiga, Janubiy Koreya – 77,7 reyting indeksiga, Avstraliya-74,1 reyting indeksiga, Kanada -71,3 reyting indeksi bilan eng kuchli sog‘likni muhofaza etish tizimiga ega karchalon mamlakatlar qatoridan joy olganligi misolida ko‘rish mumkin. Bugungi kunda tibbiy xizmatlar sohasi jahon iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri sifatida alohida mamlakatlarda va hududlar ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishida o‘zining salmoqli hissasiga ega. O‘zbekistonga esa 2024-yilgi reyting indeksida eng kuchli sog‘likni muhofaza etish tizimida 36,26 ko‘rsatkichi tegishli bo‘lib va 110 ta jahon mamlakatlari ichida 64-o‘rinni egallab turibdi¹.

Jahonda tibbiy xizmatlarning muqobil yangi turlarini shakllantirish, barqaror xususiy tibbiy xizmatlar tizimini yaratish, xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlardan foydalanishda samarali “raqobatli hamkorlik (ko-petitsiya)”ka o‘tish, davlatlarning tabiiy-geografik joylashuvidan kelib chiqib, ichki va xalqaro tashqi tibbiy xizmatlar bozori uchun zaruriy infrastrukaturalarni, chunonchi xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlarni rivojlantiruvchi zamonaviy klasterlarni yaratish, tibbiy xizmat vositalariga nisbatan joriy etilgan tariflar va bojxona tizimlari talablarini optimallashtirish, xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlar subyektlari investitsion jozibadorligini oshirish, mazkur xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlar istiqbollari belgilash kabilar ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni chuqur tadbiiq etish, bandlikni ta‘minlash, aholining daromadlari va turmush sifatini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biri tariqasida xususiy shifoxonalar tibbiy xizmatlarini rivojlantirish borasida tizimli ishlar izchil ravishda amalga oshirilib kelinmoqda. Bu tendentsiya iqtisodiy rivojlanishga shuningdek, eksport hajmi va ish o‘rinlarining ko‘payishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonda 2025-yilda qariyb 9500 taga yaqin xususiy shifoxonalar tashkil topgan bo‘lib, tibbiy xizmatlar bozorida faoliyat yuritmoqda². Ammo bugungi kunda tibbiyot oliy ta‘lim muassasalari klinikalari ekstensiv tarzda rivojlanmoqda, u yerda tibbiyot fanlari doktorlarining 70 foizi ishlasada, ularning salohiyatidan yetarlicha foydalanilmayapti. Ixtisoslashgan markazlarning innovatsion salohiyati pastligi sharoitida tibbiyot amaliyotining ta‘lim berish jarayoni va ilm-fan bilan sust integratsiyalashganligi tibbiyotning ilg‘or yutuqlarini davolash-tashxis jarayoniga joriy etish qoniqarsiz darajada ekanidan dalolat bermoqda. Yuqorida sanab o‘tilgan kamchiliklar sog‘liqni saqlashning sifatiga bo‘lgan aholining tobora ortib borayotgan talablarini qondirish, joylarda to‘planib qolgan muammolarga tezkorlik bilan munosabat bildirish va tibbiy xizmat ko‘rsatish sohasida ijobiy

¹ <https://www.google.com/search>

² Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma‘lumotlari.

o'zgarishlarga erishish imkonini bermayapti. Ushbu zaruriyat xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlarni rivojlantirish va samaradorligini oshirish borasida ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlashtirishni taqoza etadi va tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2021- yil 30- sentyabrdagi PF-6318-son "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2022 -yil 27- yanvardagi PQ-104-son "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil, 1-apreldagi 2863-son "Sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi PF-5590- sonli "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2022-yil 14-apreldagi PF-102- sonli «Tibbiyotda xususiy sektor faoliyatiga qo'shimcha qulayliklar yaratish va soha xodimlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-dekabrdagi PQ-415- sonli "Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish hamda ilg'or raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tibbiy iqtisodiyotining shakllanishi, resurslardan samarali foydalanish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik masalalarining ilmiy asoslari xorijlik olimlar³, jumladan, Keyns J.M., Marshall A., Fisher M., Haqsever K.X., Render B.R., Rassel R.S., Merdik R.G., Shumpeter Y.A., Porter M., Teisberg E., Zuenkova, Yu.A., Lukina, Yu.V., Kutishenko, N.P., Martsevich S.Yu., Ivanov A.V. va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

³ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. сангл. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. – М.: МИЭМП, 2010; Маршалл А. Принципы экономической науки / А.Маршалл: В 3 т. - М.: Прогресс-Т.3. 1984. -119 с.; Regional labor markets. Analytical contributions and cross-national comparisons. Ed. by. M.Fischer and P.Nijkamp. - Elsevier Science Publishing Co, 1987. -500 p.; Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е международ. изд. (пер. с англ под науч. ред. В.В.Кулибановой) / К.Х.Хаксевер, Б.Р.Рендер, Р.С.Рассел, Р.Г.Мердик. – СПб и др.:ПИТЕР, бух, 2002. – 751 с.; Шумпетер Й. Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия [Текст] / Й. Шумпетер: пер. с англ. предисл. В.С. Автономова. – М.: ЭКСМО, 2007. – 864 с.; Porter M., Teisberg E. Redefining Health Care: Creating Value Based Competition on Results. Harvard Business School Press, 2006; 3. Zuenkova, Yu.A. The struggle for patients and severe competition for compulsory health care. Vestnik MIRBIS, 2021; Lukina, Yu.V.; Kutishenko, N.P.; Martsevich, S.Yu. Treatment adherence: modern view on a well known issue. Cardiovascular Therapy and Prevention, 2017; 5. Ivanov, A.V. Registers as the basis for data collection and evidence building. RealWorld Data & Evidence, 2021\$.

Ushbu muammolarni o‘rganishga O‘zbekistonlik olimlardan⁴ Pardayev M.Q., Po‘latov M.E., Muhammedov M.M., Zaynalov D.R., Mirzayev Q.J., Tuxliyev I.S., Aslanova D.X., Alimova M.T., Arabov N.U., Axmadjanov I.X., Raxmanov D.X., Dadaxodjayeva M.E. va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan.

Ammo yuqorida keltirilgan olimlarning asarlarida xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlarni rivojlantirish va samaradorligini oshirish yo‘llarini ayrim jihatlari o‘rganilgan. Shuningdek, xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmat ko‘rsatish jarayonlarida ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari kompleks tadqiqot sifatida qisman o‘z aksini topgan. Hozirgi vaqtda xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va samaradorligini oshirish yo‘llari bilan bog‘liq tadqiqotlar yetarli darajada emasligi ushbu mavzuda chuqur ilmiy-uslubiy izlanishlarni amalga oshirishni zarurat etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat tibbiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatni oshirishga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar” rejasida doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlarni rivojlantirish va samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlar tushunchasi va samaradorligini ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini tushuntirib berish;

xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlarni tasniflash va samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarning ilmiy-nazariy jihatlarini aniqlash;

xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlarni rivojlantirish va samaradorligini oshirishning xorij tajribasini o‘rganish;

O‘zbekistonda xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlarni rivojlanish holati va tendensiyalarini tahlil etish;

xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlar samaradorlik ko‘rsatkichlarini guruhlash va aniqlash uslubiyoti borasida tavsiyalar taklif etish ;

xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlar bilan DXSHgining o‘zaro hamkorlik tamoyili va rivojlantirishning ekonometrik modelini ishlab chiqish;

⁴ Pardayev M.Q. Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyotining ayrim muammolari .Monografiya. Toshkent. «Navro‘z», nashriyoti, 2014.; Po‘latov M.E., Mirzayev Q.J., Sultonov Sh.A., Shavqiyev E. Global iqtisodiy rivojlanish .O‘quv qo‘llanma.T.: Fan va texnologiya, 2018. – 296 b.; Мухаммедов М.М.,Зайналлов J.R, Normurodov U.N., Ayubov I.I., Xalikov Y.M. va boshq. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik – Samarqand : “Fan bulog‘i” nashriyoti, SamISI, 2022-y.-490 bet. Aslanova D.X., Alimova M.T., Norkulova D.Z. Turistik klaster. O‘quv qo‘llanma. Samarqand: Zarafshon, 2018. – 340 b. , Arabov N.U., Artikov Z.S. Servis korxonalarida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish. Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish jurnali//Samarqand, SamDU, № 1, 2021, 153-164 b; Axmadjanov I.X. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida tibbiyot moddiy-texnika ta‘minoti xizmatlarini ko‘rsatish holati va istiqbollari // “Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2016 yil; Raxmanov D.X. O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishning ustuvor yo‘nalishlari // “Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, mart, 2012- yil; Dadaxodjayeva M.E. Xorijiy davlatlarda sog‘liqni saqlashni boshqarishning turli modellariga tavsif va xalqaro amaliyot // “Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016- yil.

xususi shifoxonalarda tibbiy xizmatlarni rivojlantirish asosida davolash sogʻlomlashtirishning istiqboldagi imkoniyatlari va prognoz parametrlariga oid tavsiyalar taklif etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Samarqand viloyatida xususi shifoxonalarda tibbiy xizmatlar koʻrsatish bilan shugʻalalanadigan xoʻjalik subyektlari olingan.

Tadqiqotning predmeti xususi shifoxonalarda tibbiy xizmatlarni rivojlantirish va samaradorligini oshirish boʻyicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertasiyada quyilgan vazifalarni hal etishda mantiqiy – abstraktsiya, taqqoslash, tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, istiqbolli bashoratlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“tibbiy xizmatlar” tushunchasining mazmuni xususi shifoxonalarda tibbiy xizmatlarining oʻrni, ular tomonidan koʻrsatiladigan xizmatlarning turlari, tibbiy xizmatlarining shakllanishi, rivojlanishi va samaradorligini oshirishga taʼsir etuvchi omillar va ularning oʻziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda takomillastirilgan

xususi shifoxonalarda tibbiy xizmatlar samaradorligini ifodalovchi koʻrsatkichlar tizimi, ularning tasnifi, aniqlanish va tahlil qilish yoʻllari, tibbiy xizmatlar samaradorligini ifodalovchi koʻrsatkichlar oʻzgarishiga taʼsir qiluvchi omillarni tahlil qilishning takomillashgan usullari ishlab chiqildi;

xususi shifoxonalarda tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirishda kadrlar salohiyatidan foydalanishning asosiy yoʻnalishlari, hamda tibbiy personalni boshqarish prinsiplari va usullarini takomillashtirish yoʻllari, xususi shifoxonalarda tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirishda mavjud muammolarini bartaraf etishga qaratilgan “MICE tibbiyot xizmatlari”ni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi takomillashtirilgan;

Oʻzbekistonda tibbiy xizmatlar sohasini rivojlantirish asosida YaIMda tibbiy xizmatlar ulushi hajmini oshirishning 2025–2030-yillarga moʻljallangan oʻrta muddatli prognoz koʻrsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida xususi shifoxonalarda tibbiy xizmatlarning oʻrni, ular tomonidan koʻrsatiladigan xizmatlarning turlari, ularning takomillashgan taʼriflari ishlab chiqilgan;

xususi shifoxonalarda tibbiy xizmatlarning shakllanishi, rivojlanishi va samaradorligini oshirishga taʼsir etuvchi omillar tizimi va ularning oʻziga xos xususiyatlari ochib berilgan;

xususi shifoxonalarda tibbiy xizmatlar faoliyati samaradorligini ifodalovchi koʻrsatkichlar tizimi, ularning tasnifi, aniqlanish va tahlil qilish yoʻllari ishlab chiqilgan;

xususi shifoxonalarda tibbiy xizmatlar samaradorligini ifodalovchi koʻrsatkichlar oʻzgarishiga taʼsir qiluvchi omillarni tahlil qilishning takomillashgan usullari ishlab chiqildi ;

xususi shifoxonalarda tibbiy personalni boshqarish prinsiplari va usullarini takomillashtirish yoʻllari, tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirishda mavjud

muammolarni bartaraf etishga qaratilgan “MICE tibbiyot xizmatlari”ni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tahlil jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy ma’lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, ishda keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o‘tganligi, ilmiy natijalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xizmatlar ko‘rsatish sohasini iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalardan foydalanilganligi, xizmatlar sohasini innovatsion taraqqiy ettirish asosida iqtisodiy samaradorligini oshirish konsepsiyasining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ulardan respublika va hududlar kesimida xizmat ko‘rsatish sohasini iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda, shuningdek, xizmatlar sohasi va iqtisodiy yo‘nalishlarda o‘quv dasturlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlarni rivojlantirish va samaradorligini oshirish yo‘llari bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar asosida:

xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlarining o‘rni, ular tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarning turlari, tibbiy xizmatlarining shakllanishi, rivojlanishi va samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi omillar va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olingan holda takomillashtirilgan “tibbiy xizmatlar” tushunchasining mazmuni “Biznesni tadqiq etish usullari” nomli o‘quv qo‘llanmaga kiritilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Samarqand iqtisodiyot va servis institutining 2023 yil 10 noyabrdagi 4-sonli qarori; ro‘yxatga olish raqami 109-10/11). Mazkur tushunchaning mazmunan takomillashtirilishi tibbiyot sohasida “tibbiy xizmatlar” kategoriyasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini kengroq tushunish orqali xususiy shifoxonalarda faoliyat samaradorligini oshirishda yangicha ilmiy-uslubiy yondashuvlarni shakllantirish imkonini bergan;

xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlar samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi, ularning tasnifi, aniqlanish va tahlil qilish yo‘llari, tibbiy xizmatlar samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilishning takomillashgan usullari ishlab chiqilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash vazirligining 2025-yil 15-maydagi 05-28/10851-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlar samaradorligini baholashda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar tizimini kengaytirgan holda ushbu jarayonni to‘liq baholash imkonini yaratgan;

xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirishda kadrlar salohiyatidan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari hamda tibbiy personalni boshqarish prinsiplari va usullarini takomillashtirish yo‘llari, xususiy

shifoxonalarda tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirishda mavjud muammolarini bartaraf etishga qaratilgan “MICE tibbiyot xizmatlari”ni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi taklif etilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash vazirligining 2025-yil 15-maydagi 05-28/10851- sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish natijasida xususiy shifoxonalar faoliyat samaradorligining oshishiga erishilgan;

O‘zbekistonda tibbiy xizmatlar sohasini rivojlantirish asosida YaIMda tibbiy xizmatlar ulushi hajmini oshirishning 2025–2030-yillarga mo‘ljallangan o‘rta muddatli prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash vazirligining 2025-yil 15-maydagi 05-28/10851-sonli ma’lumotnomasi). Prognozning amalga oshirilishi natijasida O‘zbekistonda tibbiy xizmatlar 2030-yilda 15194,5 mlrd so‘mni tashkil etishi hamda 1,5 barobarga oshishi bashorat qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, jumladan 6 tasi respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya ishi tarkiban kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertasiya hajmi 168 betdan iborat.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obekti va predmeti tavsiflangan. Tadqiqotning fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, erishilgan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashrlar va dissertasiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertasiya ishining birinchi bob-i-xususiy **shifoxonalarda tibbiy xizmatlarni rivojlantirish va samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari** deb nomlanadi. Ushbu bob xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlar tushunchasi va samaradorligini ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlarni tasniflash va samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarning ilmiy-nazariy jihatlari va xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlarni rivojlantirish va samaradorligini oshirishning xorij tajribasi ilmiy asoslangan.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining global taraqqiyotida xizmatlar sohasida tibbiy xizmatlari ulushi salmoqli ta‘siriga ega bo‘lib dunyodagi mehnat taqsimoti taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta‘kidlash joizki jahonda tibbiy xizmatlarni rivojlanishi mamlakatlarning salomatlikni mustahkamlanishiga, aholi turmush farovonligini yuksalishiga ayniqsa davlatlar iqtisodiyotining muhim jihatlari kengayishiga olib keladi. Tadqiqot ishida O‘zbekiston ham jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri sifatida tibbiy xizmatlar sohasini tarixida salmoqli mavqyega ega ekanligi ilmiy asoslanildi, tibbiy xizmatlarni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, tibbiy xizmatlarning milliy iqtisodiyotdagi roli va funksiyasi tadqiq etildi. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida tibbiy xizmatlarining o‘rni, ular tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarning turlari, ularning takomillashgan ta‘riflari, tibbiy xizmatlarining shakllanishi, rivojlanishi va samaradorligini oshirishga ta‘sir etuvchi omillar tizimi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari tushuntirib berildi.

Tibbiy xizmatlar sohasida bir qancha xizmatlar ko‘rsatiladi. Ularni yirik ikki guruhga bo‘lish mumkin: davlat tibbiy bepul va xususiy tibbiy pullik xizmatlari. Davlat tibbiy bepul xizmatlari ham bir qancha yo‘nalishlarga ega. Ulardan biri bemorlarga davlat mehmonlarni joylashtirish va vaqtincha yashashini ta‘minlash bilan bog‘liq xizmatlardir. Bular tarkibiga mehmonxona xo‘jaligi tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar ham kiradi. Ularning bir-biri bilan bog‘liqligi quyidagi rasmda keltirilgan (1-rasm).

Tibbiy xizmatlar sohasida o‘z navbatida yana bir qancha guruhlar bo‘linadi. Bular tibbiy xo‘jalik xizmatlari, transport xizmatlari, bundan tashqari tibbiy xizmatlar tarkibiga hozirgi paytda bemorlarga ertalabki nonushtani tashkil qilish xizmatlari kiritilgan va ularning narxi shifoxonaga joylashtirish bahosiga qo‘shiladi.

Shuningdek tadqiqot ishida tibbiy xizmatlar sohasini respublikada rivojlanishining ilmiy-uslubiy asoslari tadqiq etilib, unga ko‘ra xizmatlarini rivojlantirish, “tibbiy xizmatlar” bilan birga tibbiy xizmatlar sohasini rivojlantirish yo‘nalishlari bo‘yicha bir qator olimlarning ilmiy qarashlari o‘rganilgan. Ayniqsa

bu yoʻnalishda ilmiy tadqiqotlar olib borgan jahondagi klassik siyosiy iqtisodchi olimlar namoyondalari (A.Smit, D.Rikardo)ning ilmiy qarashlari, shuningdek, rivojlangan davlatlar yetakchi iqtisodchilari (A.Samuelson, R.Vernon)ning bu yoʻnalishdagi alohida fikrlari hamda respublikamiz olimlarining (A.S.Usmonov, Sh.Shodmonov, B.A.Abdukarimov, M.Q.Pardayev, I.Ivatov va boshqalar) ilmiy qarash va yondoshuvlari tahlil qilingan. Xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlar faoliyati samaradorligini ifodalovchi koʻrsatkichlar tizimi, ularning tasnifi, aniqlanish va tahlil qilish yoʻllari, tibbiy xizmatlar samaradorligini ifodalovchi koʻrsatkichlar oʻzgarishiga taʼsir qiluvchi omillarni tahlil qilishning takomillashgan usullari ishlab chiqildi.



1-rasm. Aholiga davlat va xususiy shifoxonalarda koʻrsatiladigan tibbiy xizmatlarning turlari⁵

Oʻzbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishga qaratilganligi sababli, xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlarni rivojlantirish – aholining hayot farovonligini oshirish, yildan-yilga tibbiy xizmatlarga talablarini qondirishda muhim xizmat koʻrsatish yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Shu sababli tadqiqot ishida, xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlar ni rivojlantirish va uning bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim nazariy asoslarini oʻrganish muhim vazifalardan hisoblanib va mazkur dissertatsiya ishida ushbu jarayon chuqur oʻrganildi. Shundan kelib chiqib, xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlar tushunchasining ijtimoiy –iqtisodiy mohiyati ochib berildi.

⁵ Muallif ishlanmasi

Xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlar deb - davolash, reabilitatsiya, sogʻlomlashtirish maqsadida shifokor tomonidan eng qulay va mos tashhiz retseptini tanlash, kasallik turiga asosan mos davolash turini aniqlab olish, bemorga (isteʼmolchiga) tibbiy xizmatlar haqida shifokor maslahatlarini berib borish kabi xizmatlar majmuiga aytiladi. Unga koʻra: Xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmat – shifokor va isteʼmolchi (bemor) oʻrtasidagi xizmat koʻrsatish munosabatlari natijasida aholini tibbiy ehtiyojini qondirish maqsadida amalga oshiriladigan xizmat koʻrsatish faoliyat turi hisoblanadi. Tadqiqotlar natijasida Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha tasniflanishiga koʻra aholiga davlat va xususiy shifoxonalarda koʻrsatiladigan tibbiy xizmatlarning turlari tahlil etildi. Mamlakatimizda xususiy shifoxonalar tomonidan koʻrsatiladigan tibbiy xizmat turlari 81 ta ekanligi aniqlandi. 1-jadvalda ularning baʼzi turlari toʻgʻrisida maʼlumot keltirildi.

1-jadval

Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligining iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha tasniflanishiga koʻra aholiga davlat va xususiy shifoxonalarda koʻrsatiladigan tibbiy xizmatlarning turlari ⁶

№	Kod	Tibbiy xizmat nomi
1	86.21.10.120-00001	Davlat xizmatchilarini dispanserizatsiyadan oʻtkazish xizmati
2	86.21.10.120-00002	Voyaga etmaganlarni profilaktik tibbiy koʻrikdan oʻtkazish xizmati
3	86.90.15.000-00001	Sitologik tekshiruvlar oʻtkazish xizmati
4	86.90.19.190-00001	Tiriklikdagi patologo-anatomik tekshiruvlarni olib borish xizmati
5	86.90.19.190-00002	Oʻlimidan soʻng patologo-anatomik tekshiruvlarni olib borish xizmati (patologo-anatomik yorib koʻrish)
6	86.90.19.110-00001	Sanitariya-epidemiologiya xizmatini tashkillashtirish xizmati
7	86.90.19.190-00003	Aholini emlash xizmati
8	86.90.15.000-00002	Gistologik tekshiruvlar oʻtkazish xizmati
9	86.10.11.110-00001	Kasalxona jarrohlik boʻlimi shifokorlari tomonidan koʻrsatiladigan xizmatlar
10	86.10.11.120-00001	Kasalxona jarrohlik boʻlimi hamshiralari tomonidan koʻrsatiladigan xizmatlar
11	86.10.11.130-00001	Kasalxona jarrohlik boʻlimi kichik tibbiyot xodimlari tomonidan koʻrsatiladigan xizmatlar
12	86.10.12.130-00001	Kasalxona ginekologiya va akusherlik boʻlimi kichik tibbiyot xodimlari tomonidan koʻrsatiladigan xizmatlar
13	86.10.12.110-00001	Kasalxona ginekologiya va akusherlik boʻlimi shifokorlari tomonidan koʻrsatiladigan xizmatlar
14	86.10.12.120-00001	Kasalxona ginekologiya va akusherlik boʻlimi feldsherlari tomonidan koʻrsatiladigan xizmatlar
15	86.10.14.110-00001	Psixiatriya shifokorlari tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar
16	86.10.14.120-00001	Psixiatriya shifoxonalari oʻrta darajali hamshiralari tomonidan koʻrsatiladigan xizmatlar
17	86.10.14.130-00001	Psixiatriya shifoxonalari kichik hamshiralari tomonidan koʻrsatiladigan xizmatlar
18	86.10.13.110-00001	Reabilitatsiya markazlari shifokorlari tomonidan koʻrsatiladigan xizmatlar
19	86.10.13.120-00001	Reabilitatsiya markazlari hamshiralari tomonidan koʻrsatiladigan xizmatlar
20	86.10.13.130-00001	Reabilitatsiya markazlari kichik tibbiy xodimlari tomonidan

⁶ <https://tasniflagich.mf.uz/>

		ko'rsatiladigan xizmatlar
21	86.90.12.000-00001	Tibbiy yordam xizmatlari
22	86.21.10.110-00001	Umumiy amaliyot shifokorlari tomonidan ko'rsatiladigan maslahat xizmatlari
23	86.21.10.130-00001	Davolash (nazorat qilish, shu jumladan muolajalar) bo'yicha umumiy amaliyot shifokorlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar (kuzatish, shu jumladan protseduralar)
24	86.23.11.000-00001	Ortodontiya sohasidagi xizmatlar
25	86.22.11.000-00001	Tibbiy tadqiqotlar o'tkazish va rasshifrovka qilish xizmatlari
26	86.90.19.110-00002	Oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlariga sanitar epidemiologik xulosa berish xizmati
27	86.90.19.110-00003	Poligrafiya mahsuloti (darsliklar) uchun kimyoviy xavfsizlikka baholashni o'z ichiga olgan sanitariya-epidemiologiya xulosasini berish
28	86.90.15.000-00003	Laboratoriya tahlili xizmati
29	86.90.19.110-00004	Hududiy sanitariya-epidemiologiya nazorat markazlari pullik xizmatlarini ko'rsatish uchun ruxsatnoma rasmiylashtirish xizmati
30	86.90.19.140-00002	Ekologik muhitni barqarorlashtirish

Xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlarni maqsadi aholi ehtiyojini qondirishga, insonlar hayotini yaxshilashga va bandligini ta'minlashga hamda daromadlarini oshirish orqali ularning farovonligini yuksaltirishga qaratilgan. Tibbiy xizmatlar sifati, uning moddiy texnika bazasining holati va infratuzilmasi tarkibiga bog'liq. Respublikada tibbiy xizmatlar texnika bazasining holati va infratuzilmasini yanada takomillashtirish uchun yetarlicha salohiyat mavjud.

Xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar ta'sir qilish darajasiga ko'ra 2 ta, marketing segmentiga ko'ra ham 2 ta tizimli yondoshuvga ko'ra 7 ta, menejment talabiga ko'ra 2 ta, raqobatbardoshlik mavqeiga ko'ra 2 ta omillarni tashkil etuvchi 5 guruhi aniqlandi va ularning tarkibi murakkab tuzilmaga ega degan xulosaga kelindi (2-jadval).

Xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar⁷

Guruhlar	Guruhlash belgisi	Omillar turlari
1-guruh	Ta'sir qilish darajasiga nisbatan	Makro; Mikro
2-guruh	Marketing segmentiga nisbatan	Endogen Ekzogen
3-guruh	Tizimli yondoshuvga nisbatan	Siyosiy Iqtisodiy Ekologik Tashkiliy Geografik Texnologik Informatsion
4-guruh	Menejment talabiga nisbatan	Bevosita boshqariladigan Bevosita boshqarilmaydigan
5-guruh	Raqobatbardoshlik mavqeiga nisbatan	Kuchli doimiy Kuchsiz zaif

Xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi omillarning keltirilgan tasnifiy guruhlari ushbu xizmatlar samaradorligini mamlakat, hudud va xususiy shifoxona miqyosida aniqlash va baholash imkonini beradi, shuningdek samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Ushbu omillar guruhlari tibbiy xizmatlarni rivojlantirish va samaradorligini oshirishning SWOT-tahlilini amalga oshirishga asos bo'lib hisoblanadi. Xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, bir tomondan, umumiy davlat statistika bazalaridan, ikkinchi tomondan esa, xususiy shifoxona hisobotlaridan olish mumkin bo'lgan ko'rsatkichlardir. Mazkur ko'rsatkichlardan ham mamlakat, ham xususiy shifoxona miqyosida samaradorlikni aniqlashda qo'llash mumkin.

Bugungi kunda tibbiy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha katta xorijiy tajriba mavjud bo'lib, turli ayrboshlash usullarini qo'llash orqali tibbiy xizmat hajmini oshirish xususiy shifoxonalarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon tajribasiga asoslanib yangi bozorlarni egallash, xususiy shifoxonaning bozordagi ulushini oshirish kabi strategik maqsadlarni amalga oshirishda ayrboshlash jarayonida tobora ko'proq innovatsion texnologiyalar qo'llanish imkoniyatlari yaratilgan.

Xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlarini rivojlantirishning xorijiy tajribalari, ayniqsa Germaniya, AQSh, Frantsiya, Angliya davlatlarining bu yo'nalishdagi erishgan ijobiy yutuqlaridan kelib chiqib, mazkur tadqiqot ishida respublikamizda tibbiy xizmatlarni rivojlantirishda quyidagilarga ustivorlik berildi. Jumladan:

- tibbiy xizmatlarni xususiy sektorini rivojlantirish;

⁷ Muallif ishlanmasi.

- sog'liqni-saqlash tizimida xususiy tibbiy xizmat korxonalari sohaning asosiy qismini tashkil etish;

- xususiy shifoxonalar tashkil etish orqali aholini yuqori sifatli tibbiy xizmat bilan ta'minlash;

- davlat va xususiy shifoxonalarda robotik jarrohlik, regenerativ tibbiyot, integral tibbiyot amaliyotini tashkil etish;

- xususiy shifoxonalar tibbiy xizmatlarini ko'rsatishda, tibbiy xizmat tularini hisobga olgan holda xizmatni innovatsion texnologiyalari ayniqsa raqamlashtirish tizimini shakllantirish va b..

Xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlar samaradorligi - bu tibbiy xizmatlarni ko'rsatish jarayonida qilingan xarajatlar va olingan daromadlar o'rtasidagi natijaviylik hisoblanadi. Tadqiqotlar natijasida keltirilgan ta'rifga mos ravishda xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlar samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimi, ko'rsatkichning nomi, hisoblash tartibi ishlab chiqildi (3-jadval).

3-jadval

Xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlar samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimi⁸

T/r	Ko'rsatkichning nomi	Hisoblash formulasi	Izoh
1.	Tibbiy xizmat rentabellikgi, foiz	$R = \frac{D_{jami}}{X_{jami}} * 100$	D_{jami} – jami daromad so'm, X_{jami} – jami xarajat so'm
2.	Tibbiy xizmatdagi operasion xarajatlarning daromatlardagi ulushi, so'm	$K_{oper} = \frac{X_{oper}}{D_{jami}}$	X_{oper} – operasion xarajatlar so'm, D_{jami} – jami daromad so'm
3.	Tibbiy xizmat korxonasi daromadining aylanma mablag'lardagi ulushi, foiz	$K_{ayl} = \frac{D_{jami}}{A_{jami}} * 100$	D_{jami} – jami daromad so'm, A_{jami} – jami aylanma mablag' so'm
4.	Tibbiy xizmatlardagi mehnat resurslarining samaradorligi, so'm	$S_{mehnat} = \frac{A_{jami}}{W_{jami}}$	A_{jami} – jami aylanma mablag' so'm, W_{jami} – xodimlarga to'langan ish haqi so'm
5.	Xususiy shifoxona samaradorligini (KPI asoslangan) baholashning kompleks ko'rsatkichi, so'm	$C_{tibbiy xizmat} = \frac{(KPI) A_{jami}}{X_{mehnat} + Q_{tashqiayl} + Q_{ayl}}$	A_{jami} – jami aylanma mablag' so'm, X_{mehnat} – xodimlarni saqlashga ketgan xarajatlar so'm, $Q_{tashqiayl}$ – aylanmaydigan mablag'larning o'rtacha yillik qoldig'i, Q_{ayl} – aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qoldig'i

⁸ Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

**Samarqand viloyatida xususiy shifoxonalarning 2024-yilda
samaradorlik ko'rsatkichlari.**

№	Ko'rsatkichlar	Xususiy shifoxonalar nomi			
		Zarmed	Bionur	Innova	Perfekt
Mutlaq ko'rsatkichlar					
1.	Tibbiy xizmat ko'rsatishdan tushgan tushum., mln.sum	16 880,0	17 840,0	28 450,0	6 800,0
2.	Tibbiy xizmat ko'rsatishda asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati, mln. sum	35 750,0	38 680,0	57 650,0	12 780,0
3.	Tibbiy xizmat ko'rsatishning sof foydasi, mln so'm.	3 750,0	3 710,0	6 671,5	1 237,4
Nisbiy ko'rsatkichlar					
4.	Faoliyat rentabelligi, foiz	22,2	20,8	23,4	18,2
5.	Asosiy fondlar rentabelligi, foiz	10,4	9,6	11,5	9,6

4-jadval ma'lumotlaridan, Samarqand viloyatida xususiy shifoxonalarning 2024-yilda samaradorlik ko'rsatkichlarini tadqiq etish natijasida "Zarmed" xususiy shifoxonasida 128,5 foiz, "Bionur" xususiy shifoxonasida 126,2 foiz, "Innova" xususiy shifoxonasida 130,6 foiz va "Perfekt" xususiy shifoxonasida 122,2 foizdan iborat bo'lib, xususiy shifoxonalar tibbiy xizmat samaradorligining yuqori ko'rsatkichi, "Innova" xususiy shifoxonasiga shuningdek, eng quyi ko'rsatkich esa "Bionur" xususiy shifoxonasiga tegishli ekanligi aniqlandi. Asosiy fondlar rentabelligi "Zarmed" xususiy shifoxonasida 10,4 foizni, "Bionur" xususiy shifoxonasida 9,6 foizni, "Innova" xususiy shifoxonasida 11,5 foizni va "Perfekt" xususiy shifoxonasida 9,6 foizni tashkil etgan. Asosiy fondlar rentabelligi "Innova" xususiy shifoxonasida yuqoriligi (11,5 foiz) qolgan xususiy shifoxonalarga nisbatan "Innova" xususiy shifoxonasi tibbiy xizmatlar talabi ko'pligi, xususiy tibbiy xizmat tannarxi raqobatbardosh, mehnat samaradorligi, sof foyda va rentabellik yuqoriligini ko'rsatdi.

5-jadval**2020-2024-yillar davomida Samarqand viloyatida xususiy shifoxonalarning tibbiy xizmat ko'rsatish daromadlarining o'zgarish dinamikasi**


№	Xususiy shifoxonalar	Yillar					2024-yilda 2020 – yilga nisbatan o'zgarish (foizda)
		2020	2021	2022	2023	2024	
1	Zarmed	8 270,0	9 780,0	12 500,0	14 640,0	16 880,0	204,1
2	Bionur	7 740,0	8 150,0	11 520,0	15 680,0	17 840,0	230,4
3	Innova	12 380,0	16 250,0	17 470,0	22 320,0	28 450,0	229,8
4	Perfekt	2 570,0	3 780,0	4 420,0	5 150,0	6 800,0	264,5

5-jadvalda keltirilgan, tadqiqotning obyekti sifati tanlanlab olingan bugungi kunda va tibbiy xizmatlar bozorida faoliyat yuritayotgan “Zarmed” xususiy shifoxonasi, “Bionur” xususiy shifoxonasi, “Innova” xususiy shifoxonasi va “Perfekt” xususiy shifoxonalarining 2020-2024-yillar davomida Samarqand viloyatida xususiy shifoxonalarning tibbiy xizmat ko'rsatish daromadlarini o'zgarish dinamikasini tahlili o'sish tendentsiyasiga egaligini ko'rsatdi. 2020-yilga nisbatan 2024-yilda xususiy shifoxonalarning tibbiy xizmat ko'rsatish daromadlarini o'sishi “Zarmed” xususiy shifoxonasida 204,1 foizni, “Bionur” xususiy shifoxonasida 230,4 foizni, “Innova” xususiy shifoxonasida 229,8 foizni va “Perfekt” xususiy shifoxonasida 264,5 foizni tashkil etgan. Samarqand viloyatida xususiy shifoxonalarning tibbiy xizmat ko'rsatish daromadlarini o'sish tendentsiyasi makroiqtisodiy o'chamda keyingi besh yil ichida ular tomonidan ko'rsatilayotgan xususiy tibbiy xizmatlarga aholi talabining oshib borayotganligi, xususiy shifoxonalarni tibbiy xizmatlar bozorida samarali faoliyat yuritayotganligi, raqobatbardosh va sifatli xususiy tibbiy xizmatlarni taklif etayotganligi bilan tushuntirish mumkin.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi - **O‘zbekistonda xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlarni rivojlanish holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili** - deb ataladi. Bu bobda - O‘zbekistonda xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlarni rivojlanish holati va tendensiyalarini tahlili, xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlarni samaradorlik ko‘rsatkichlarini guruhlash va aniqlash uslubiyoti hamda xususiy shifoxonalar bilan DXSHning o‘zaro hamkorlik tamoyili va rivojlantirishning ekonometrik modeli tahlil etilgan.

Xususiy shifoxonalarni rivojlantirish bugungi tibbiy-ijtimoiy islohotlarning muhim yo‘nalishidir. Xususiy tibbiyot muassasalarini rivojlantirish bo‘yicha sezilarli ishlar amalga oshirilib, 2024-yilning holatiga sog‘liqni saqlash sohasida 10 901 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda⁹. Shundan 9497 tasi xususiy shifoxonalarga va 1404 tasi davlat tashkiloti shifoxonalarga tegishli hisoblanadi.

Tadqiqotlarimizning natijalari O‘zbekistonda keying o‘n yil davomida tibbiyot xodimlarining soni va tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi ambulator-poliklinikalar soni o‘sib borayotganligidan dalolat beradi (2-rasm).



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 2015-2024-yillar davomida tibbiy xizmatlar sohasidagi shifokorlar va ambulator-poliklinikalar sonining o‘zgarish dinamikasi (birlikda)¹⁰

2-rasmda keltirilgan O‘zbekiston Respublikasida 2015-2024-yillar davomida tibbiy xizmatlar sohasidagi shifokorlar va ambulator-poliklinikalar soni ko‘rsatkichlarining holati va o‘zgarish dinamikasining tahlili 2024-yilga kelib shifokorlar soni 110835 nafarga etib, 2015-yilga nisbatan 35980 nafarga ko‘payganligini, ambulator-poliklinikalar soni esa 2683 taga ortganligini ko‘rsatdi. Ushu holat O‘zbekistonning mehnat bozorida tibbiy xizmatlar xodimlariga nisbatan talab yildan-yilga o‘sib borayotgan tendentsiya mavjudligidan dalolat beradi. O‘shish tendentsiyaning mavjudligi esa tibbiy xizmatlarning institutsional asoslari, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari, eksportdagi o‘rni, tarkibiy tuzilishini tasniflash va marketing segmentlari xususida tadqiqotlar olib borish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

⁹ https://t.me/statistika_rasmiy/4693

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Tadqiqotlarimiz davomida 2015-2024-yillar mobaynida Respublikamiz hududlarida tibbiy xizmatlar sohasini rivojlanishi va o‘shish sur‘atlari tahlil qilindi (6-jadval).

6-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2015-2024-yillarda tibbiy xizmatlar sohasini rivojlanishi va o‘shish sur‘atlari (foizda)¹¹

№	Hududlar nomi	Yillar									
		2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	O‘zbekiston Respublikasi	117,2	122,2	116,9	113,4	114,7	94,8	128,5	113,4	112,3	110,5
2	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	123,8	129,9	116	105,5	103,5	93,9	118,7	115,8	118,7	117,2
3	Andijon viloyati	123,1	120,8	118,4	122,7	112,1	95,8	121,7	113,3	98,1	119,5
4	Buxoro viloyati	121,6	126,8	114,6	101,9	111,4	83,7	128,4	132,9	106,6	110,5
5	Jizzax viloyati	125,4	123	115	122,5	111,6	88,6	157	103,9	113,2	103,3
6	Qashqadaryo viloyati	119,4	101,4	128,1	112,5	121,3	95,1	127,8	108,7	120,3	122,0
7	Navoiy viloyati	134,3	125,3	119,8	120,1	125,8	106	125,1	117,9	103,2	102,2
8	Namangan viloyati	104,3	119	112,9	114,8	122,5	78,4	147,3	116	110,7	111,8
9	Samarqand viloyati	116,6	120,7	114	112,1	112,7	125,1	120,4	122,9	117,3	115,9
10	Surxondaryo viloyati	122,4	100,3	125,1	111,9	117,9	107,4	178,4	81,4	113,1	104,3
11	Sirdaryo viloyati	111,2	109,8	112,8	120,2	124,1	104,5	150,4	107,9	115,5	110,9
12	Toshkent viloyati	128,3	105,9	122,3	128,4	114,4	77	165,4	124,8	122,5	110,2
13	Farg‘ona viloyati	117,4	110,9	110,3	108,1	108,2	96,4	135,5	114,9	107,0	101,1
14	Xorazm viloyati	113,9	133,7	120,4	105,2	114,3	110,5	130,3	111,7	112,2	117,8
15	Toshkent shahri	113,5	132,3	117	112,1	115,5	94,9	116,5	110,7	111,9	109,6

6-jadval tahlil natijalari 2015-2024-yillar mobaynida Respublikamiz hududlarida tibbiy xizmatlar sohasini rivojlanishi va o‘shish sur‘atlarida o‘zgarishlar ro‘y berganini ko‘rsatdi. 2027-yilda mamlakatimizda tibbiy xizmatlar o‘shish sur‘ati 10,5 foizni tashkil etgan. Yuqori o‘shish sur‘atlari Qashqadaryo viloyatida -22,0foiz, Andijon viloyatida - 19,5foiz, Xorazm viloyatida - 20,3 foiz, Qoraqalpog‘iston Respublikasida – 17,2foiz va Samarqand viloyatida - 15,9 foizga o‘sganligi aniqlandi. Farg‘ona viloyatida tibbiy xizmatlarni o‘shish sur‘atlariga nisbatan teskari tendentsiyada shakllangan. Buni eng avvalo tibbiy xizmatlar bozorini qisqarganligi va tarkibiy o‘zgarishlar natijasini hosilasi ta’siri doirasida yuz bergan deyish mumkin.

Tadqiqot davomida 2020-2024-yillar davomida Samarqand viloyatida sog‘liqni saqlash xizmatlari va boshqa tarmoqlardagi xizmatlar turlarining hajmi tahlil qilindi (8-jadval). Mavzuning maqsadidan kelib chiqqan holda bizlar sog‘liqni saqlash xizmatlarining dinamikasini o‘rgandik. Tahlil natijalari ko‘ra so‘nggi besh yil davomida sog‘liqni saqlash xizmatlarining hajmi barqaror oshib

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

borgan. Jumladan, 2020-yilda ushbu ko‘rsatkich 260,7 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda sog‘liqni saqlash xizmatlarining hajmi 1 106,0 mlrd so‘mga etgan yoki 2020-yilga taqqoslaganda 4,2 martaga ortgan.

7-jadval

2020-2024-yillar davomida Samarqand viloyatida sog‘liqni saqlash xizmatlari va boshqa tarmoqlardagi xizmatlar turlariniing hajmi¹² (mlrd. so‘mda)

Sohalar va tarmoqlar	Yillar					2024-yilda 2020-yilga nisbatan marta ortish,
	2020	2021	2022	2023	2024	
Jami xizmatlar	14 086,1	18 259,0	22 953,6	29 023,1	58 875,7	4,1
Shu jumladan:						
Aloqa va axborot-lashtirish	716,9	835,8	1 073,7	1 364,5	2 013,4	2,8
Moliya xizmatlari	2 123,6	2 613,2	3 590,7	4 559,6	5 505,9	2,5
Transport xizmatlari	3 371,1	4 604,7	5 383,4	6 680,9	9 865,5	2,9
Shu jumladan: avto-transport xizmatlari	3 252,1	4 335,5	5 002,6	6 093,5	8 723,4	2,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	400,0	629,6	1 063,8	1 675,8	19 69,0	4,9
Savdo xizmatlari	4 205,2	5 175,9	6 239,8	7 493,1	10 590,6	2,5
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	321,7	466,8	567,2	658,5	1 020,6	3,1
Ta‘lim xizmatlari	694,2	1 003,6	1 202,0	1 593,8	2 343,5	3,3
Sog‘liqni saqlash xizmatlari	260,7	341,2	464,4	616,8	1 106,0	4,2
Ijara va prokat xizmatlari	423,6	548,4	662,0	787,4	1 077,7	2,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta‘mirlash	367,7	538,3	650,7	820,8	1 405,5	3,8
Shaxsiy xizmatlar	545,0	761,3	999,7	1 290,1	1 771,3	3,2
Me‘morchilik sohasidagi xizmatlar	321,1	318,3	370,1	414,6	536,5	1,6
Boshqa turdagi xizmatlar	335,3	421,9	686,1	1 066,9	1 943,2	5,7

Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash hamda resurslardan samarali foydalanishda investitsion faoliyatni amalga oshirish muhim ahamiyatga egadir. Shu nuqtai-nazardan tadqiqot ishida Samarqand viloyatida investitsiyalar

¹² Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Samarqand viloyat statistika boshqarmasi ma‘lumotlari.

va xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi obyektlarda qurilish faoliyatining asosiy ijtimoiy - iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil etildi. Tahlil natijalari viloyatda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning YaHMDagi ulushi 2020-yilda 21,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib 30,3 foizga oshgan. Albatta, bu viloyatda investitsion jozibadorlik o'sayotganligining ifodasi hisoblanadi. Kasalxonalar soni 2020 -yilda 3000 tadan, 2024- yilga kelib, 3900 taga ko'paygan. Poliklinika muassasalari, shu jumladan qishloq vrachlik punktlari, smenada qatnov 2020-yilda 4000 tadan, 2024-yilga kelib, 10000 taga ko'paygan (8-jadval).

8-jadval

Samarqand viloyatida investitsiyalar va xususiy shifoxonalarda tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi obyektlarda qurilish faoliyatining asosiy ijtimoiy - iqtisodiy ko'rsatkichlari¹³

Ko'rsatkichlar	Yillar					2020-2024-yillarda o'zgarish, (marta yoki foiz)
	2020	2021	2022	2023	2024	
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar - jami, mlrd. so'm	14656,2	15641,6	22656,4	25717,1	29632,5	2,2 marta
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning YaHMDagi ulushi, foiz	21,5	26,3	33,4	29,7	30,3	1,4 marta
Uy-joylarning umumiy maydoni ming m ²	782,0	858,3	477,1	303,9	408,0	-0,5 marta
Umumta'lim maktablari, ming o'quvchi o'rin	13,1	7,0	20,0	12,8	9024,0	688 foiz
Kasalxonalar, ming yotoq	0,3	0,8	0,3	585,0	390,0	1,3 marta
Poliklinika muassasalari, shu jumladan qishloq vrachlik punktlari, smenada ming qatnov	0,4	0,1	0,1	0,1	100	2,5 marta
Qurilish ishlari, mlrd. so'm	5755,3	7385,7	8895,4	10177,6	14017,1	2,4 marta

Tadqiqot ishida Samarqand viloyatida tibbiy xizmat ko'rsatishning tashkiliy tuzilmasi holati tahlil qilindi (9-jadval).

Keltirilgan jadval ma'lumotlaridan quyidagi xulosalarga kelindi:

